



## PHLOMIS HERBA-VENTI L.: MARKAZIY OSIYODAGI TARQALISHI, MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DORIVORLIK AHAMIYATI

*Umaraliyeva Shodiyona Farhodjon qizi*

*Namangan davlat universiteti, Biologiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Email: [shodiyonaumaraliyeva738@gmail.com](mailto:shodiyonaumaraliyeva738@gmail.com),*

*Tel: +9989938910413*

**Abstract.** This article discusses the origin of *Phlomis herba-venti* L., a species belonging to the *Phlomis* genus within the Lamiaceae family, *Phlomis herba-venti* L highlighting its distinct morphological characteristics that set it apart from other species, as well as its unique medicinal properties. Based on data presented in herbarium specimens, the article also outlines the dynamics of the species over the years.

**Keywords.** *Phlomis*, *Phlomis herba-venti*, herbarium,

**KIRISH.** *Phlomis* L. turkumi Lamiaceae oilasining yirik turkumlaridan biri sanaladi. *Phlomis* turkumi Sharqiy Xitoydan Yevroosiyo va O'rta Yer dengizi orqali Portugaliya va Marokashgacha keng tarqalgan. C.Moench *Phlomis* turkumiga mansub turlarning ko'plab morfologik belgilarini tan oladi va ularni *Phlomis* L. va *Phlomoides* Moench turkumiga bo'lish uchun yetarlicha morfologik farqalar mavjud deb hissoblaydi [1]. So'ngi yillarda Eron hududida *Phlomis* turkumi ustida qator zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Turkum morfologik jihatdan kam o'rganilgan taksonlar qatoriga kiradi va taksonomiyasi, geografiyasi, morfologiyasi bo'yicha dala tadqiqotlarini olib borish va molekulyar tahlillarini amalga oshirish bo'yicha yangicha qarashlarni talab etadi [4].

*Phlomis* turkumini tarqalish arealiga ko'ra 100 dan ortiq turga ega [3]. Plants of the World Online xalqaro ma'lumotlar bazasida 93 turi, O'rta Osiyo florasida ro'yxatida 17 turi [2], O'zbekiston florasida esa 12 tur mavjud [5].



*Phlomis herba-venti* L. — *Phlomis* turkumiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, *Lamiaceae* (Labguldoshlar) oilasi vakilidir. Bu tur Markaziy Osiyo, Kavkaz, Eron, Turkiya va Sharqiy Yevropaning ba’zi qismlarida tarqalgan. Ayniqsa, O‘zbekiston hududida u yarim cho‘l, tog‘oldi va dasht hududlariga moslashgan bo‘lib, o‘ziga xos ekologik va farmakologik ahamiyat kasb etadi[6].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Turning manzillarini aniqlashda Global Biodiversity Information Facility (GBIF, <https://www.gbif.org/>), Moskva (<https://plant.depo.msu.ru>) virtual gerbariysi hamda <https://www.plantarium.ru> platformasidagi ma’lumotlarga tayangan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi usuliga ko‘ra ushbu jinsning uchrash areali boshqa turlarga nisbatan yuqori bo‘lib, O‘zbekiston hududlarida keng tarqalgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA


Tadqiqotlar metodologiyasi tahlillari ma’lumotlar matritsasi bo‘yicha *Phlomis herba-venti* Markaziy Osiyoda quyidagi hududlarda aniq qayd etilgan: O‘zbekiston: Qashqadaryo (G‘uzor, Dehqonobod, Kitob), Surxondaryo (Boysun, Sherobod), Toshkent viloyati (Parkent, Bo‘stonliq), Navoiy (Karmana), Tojikiston: Hisor tizmasi va Darvoz tog‘ tizmalari, Turkmaniston: Kopetdag etaklari, Qozog‘iston: Janubiy Qozog‘istonning cho‘lga yaqin tog‘ tizmalarida uchraydi.(2-rasm)

Bu tur asosan qumoq va gilli tuproqlarda, 600–1800 m balandlikda, quruq iqlim sharoitida o‘sadi[7].

*Phlomis herba-venti* poyasi to‘g‘ri, pastdan shoxlangan, 40–100 sm balandlikda. yengil tukli. Barglar Qarama-qarshi joylashgan. Yoyiq yoki cho‘zinchoq. Ustki sirt – mayin tukli, ostki sirt – silliq yoki kam tukli. Gullari



qo'ng'iroqsimon, 2 labli, sarg'ish-binafsha rangda. Gullari yirik va ancha zich infloresensiyada joylashgan.(1-rasm) Mevalari to'rt donali yongoqcha, jigarrang, quruq[8].



**(1 va 2 rasmlar) - *Phlomis herba-venti* morfoologik tuzilishi va uning geografik joylashuvi**

Taksonomik o'rniga ko'ra; Bo'lim: Magnoliophyta bo'limi, Magnoliopsida sinfi, Lamiales tartibi, Lamiaceae Lindl oilasi, Phlomis turkumi, *Phlomis herba-venti* L. turi hisoblanadi[9].

Dorivorlik xossalariga ko'ra, Phlomis herba-venti tarkibida bir qator biologik bfaol birikmalar mavjud bo'lib, bulardan: flavonoidlar luteolin, apigenin (antioksidant ta'sir) saponinlar: immunitetni kuchaytiruvchi, efir moylari: timol, karvakrol (antiseptik) fenolik birikmalari: yallig'lanishga qarshi kasalliklarda qo'llaniladi.



Xalq tabobatida bu tur quyidagi hollarda ishlatiladi: nafas yo‘llari yallig‘lanishida, og‘riqni kamaytirishda, me‘da-ichak faoliyatini yaxshilashda, yaralarni bitirishda (tashqi qo‘llanishda) kabi kasalliklarga davodir.

## XULOSA

*Phlomis herba-venti* — Markaziy Osiyoning florasiga moslashgan, taksonomik jihatdan aniq belgilanadigan, biologik faol moddalarga boy o‘simlik turidir.

Aytish mumkinki mazkur tur kelib chiqishida ko‘plab morfologik tabaqalanishni bosib o‘tgan. *Phlomis herba-venti* tog‘li va quruq iqlimga chidamli o‘simlik bo‘lib, asosan qumloq yoki toshloq tuproqlarda, ochiq yon bag‘irlarda yoki butazorlar orasida o‘sadi.

An‘anaviy tabobatda barglari yoki guli qaynatmasi yallig‘lanishga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyatga ega deb hisoblanadi. Tabiiy bog‘larda, xususan quruq iqlimli hududlarda dekorativ sifatida ekiladi.

O‘simlik kimyoviy tarkibi jihatidan boshqa turlardan ajralib turadi, uning dorivorlik hususiyatlari juda yuqori bo‘lib, flavanoidlar, oqsillar, glikozidlar va boshqa bir qator moddalar bor, hozirgi kunda ko‘plab iste‘mol qiladigan dorilarimiz tarkibida ham o‘rin olgan. *Phlomis olgae* shu bilan birga tog‘ yonbag‘irlarida eroziyani oldini olishda foydali hisoblanadi.

*Phlomis* va uning tarkibiga kiruvchi boshqa turlarni keng plantatsiya qilish orqali tabobatda yuqori natijalarga erishish imkoniyati beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moench, C. (1794). *Methodus plantarum horti botanici et agri Marburgensis a straminum situ describendi*. Marburgi Catterum.



2. Mathiesen, C., Scheen, A.-C. & Lindqvist, C. 2011. Phylogeny and biogeography of the lamioid genus *Phlomis* (Lamiaceae). *Kew Bull.* 66: 1–17.
3. Albaladejo RG, JF Aguilar, A Aparicio, GN Feliner (2005) Contrasting nuclearplastidial phylogenetic patterns in the recently diverged Iberian *Phlomis* and *P. Ichnitis* lineages (Lamiaceae). *Taxon*, 54: 987-998.
4. Tojibaev KS, Karimov FI, Hoshimov HR, Gulomov R, Lazkov GA, Jang C-G, Gil H-Y, Jang JE, Batoshov AR, Iskandarov A, Choi HJ (2023) Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The Bozbu-Too-Ungortepa massif. *Nature Conservation* 51: 13–70.  
<https://doi.org/10.3897/natureconservation.51.94477>
5. Seyedi Z. and Salmaki Y. Trichomes morphology and its significance in the systematics of *Phlomoideae* (Lamiaceae; Lamiales; Phlomidae). – *Flora*, 2015. 213: – 40-48 p.
6. Lipsky V.I. (1954). *Flora SSSR*, T. 21. — Moskva–Leningrad: Nauka.
7. Kamelin R.V. (1987). *Konspekt flory Sredney Azii*. — SPb.: Botanika institute
8. Ovchinnikov P.N. (1963). *Flora Tadzhikskoy SSR*, T. 2. — Dushanbe: Donish.
9. Min-Su Park, Nu-Ree Na, Chang-Gee Jang, Rustam Gulomov and Komiljon Tojibaev. The complete chloroplast genome sequence of *Phlomoideae kirghisorum* Adylov, Kamelin & Makhmedov 1987 (Lamiaceae), an endemic species of Fergana Valley. *MITOCHONDRIAL DNA PART B: RESOURCES* 2024, VOL. 9, NO. 1, 104–108. <https://doi.org/10.1080/23802359.2023.2292159>
10. Dilshod Nuridinov, Rustam Gulomov, Bakhrom Toxtasinov. Bioclimatic Modeling of *Phlomoideae Kirghisorum* (Lamiaceae) Species



Distributed in Fergana Valley. International Journal of Current Science Research and review. Volume 06, Issue 04, 2023. <https://doi:10.47191/ijcsrr/V6-i4-39>

11. Seyedi Z. and Salmaki Y. Trichomes morphology and its signifiante in the systematics of *Phlomis* (Lamiaceae; Lamiales; Phlomisaceae). – Flora, 2015. 213: – 40-48 p.